




UMUMIY O‘RTA TA’LIM

GEOGRAFIYA

o‘quv dasturi

5-SINF

1. MAQSAD VA VAZIFALAR



- Geografiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi:** o'quvchilarda hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan geografik madaniyatni, ya'ni geografik dunyoqarash, tafakkur va bilimlar, ularni hayotiy va kasbiy amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini (kompetentlikni) shakllantirish;
- ☐

- o'quvchilarda Yer sayyorasi va uning hududiy qismlari haqida yaxlit bilimlarni shakllantirish, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik hodisa va jarayonlarni tushunish uchun ilmiy-metodologik zamin yaratish, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish borasida hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularni taxliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashini rivojlantirishdan iborat.
- ☒

- Geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari:** Yer sayyorasi va uning alohida hududlari, jumladan Vatanimiz O'zbekistonning tabiati, aholisi va xo'jaligi haqidagi tizimli bilimlarni hosil qilish;
- ☐

- tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish;
- ☐

- jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari, sabab-oqibatlarini tushuntirish va yechish yo'llari to'g'risida tushuncha hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatini o'stirish;
- ☒

- turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy obyekt va hodisalarni tavsiflash, geografik xaritalar va statistik ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- ☐

- joy nomlari va geografik atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- ☐

- geografik bilimlar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish;
- ☒

- o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihar, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash.
- ☒

ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'lanishni ta'minlash.

2. TUSHUNTIRISH XATI



Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda geografiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi) fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rnini bilan belgilanadi.

Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi) ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim -tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Geografiya o'quv fanini o'rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat hodisalari, mamlakatimiz tabiati haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Fanni o'rganishning ikkinchi davri umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlanib, o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika, biologiya, kimyo, matematika fanlarida o'rganiladigan mavzularga zamin yaratadi.

5-sinf "Geografiya" o'quv kursida Quyosh, Oy va yulduzlar, Yer sayyorasi, uning shakli va o'lchamlari, o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi, ularning sayyoramiz tabiati va insoniyat hayotiga ta'siri, geografik xaritalarning masshtabi, geografik koordinatalar, Yerning qattiq (litosfera), suv (gidrosfera), havo (atmosfera) hamda hayot (biosfera) qobiqlari va ularni tashkil etuvchi tabiiy obyektlarning eng muhim xususiyatlari, inson va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlar va ekologik muammolar to'g'risida ma'lumotlar beriladi hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, bunda o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

O'qituvchidarsini tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, amaliy topshiriq o'quv atlas va xarita bilan ishlash va boshqa) shakllaridan foydalanish mumkin. Darsni tashkil etishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, ularni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, muammoli ta'lim, loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o'quv jarayonini samarali

tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy texnologiyalarda foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar**, o'quvchilarni mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** berilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulot strukturasi mashg'ulotni bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur o'quv jihozlari nomlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy hodisalarni, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va xulosa yozadi. Amaliy mashg'ulot darsi uchun alohida soat ajratiladi.

Amaliy topshiriq strukturasi o'z ichiga matn, xarita, rasm, grafik, diagramma yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni xarita, matn, rasm, diagramma, grafik, jadvaldan foydalanib bajaradilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzular kesimida yoki fanlar aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv dasturida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi. Bunda, nazorat ishlari uchun alohida o'quv soatlari ajratilishi zarur. Jumladan, taqvim mavzuiy rejani tuzishda o'quv dasturida boblarga ajratilgan (mavzularga berilgan) umumiy soat hajmidan chiqmagan holda taqsimlanishi lozim.

Shuningdek, o'quvchilarning Davlat ta'lim standartini o'zlashtirish yuzasidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15 % gacha o'zgartirish va metodik kengash yig'ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir.

3. O'QUV FAOLIYATI NATIJALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR



- ☐ **O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:**
- ☐ Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofidagi harakatlari mohiyati, ularning tabiatdagi ahamiyatini biladi;
- ☐ tabiiy hodisa va jarayonlarni, tun va kun, yil fasllari almashinishi kuzatadi;
- ☐ tunda yulduzlarga qarab orienter oladi;
- ☐ globus va geografik xaritalardagi daraja to'ri (meridian va parallellar) ning mohiyatini tushunadi, geografik ob'ektlarning joylashgan o'rnini aniqlaydi;
- ☐ kompas bilan va mahalliy belgilar asosida ufq tomonlarni aniqlaydi, masofani ruletka yordamida yoki qadamlab o'lchaydi;
- ☐ xaritada turli ob'ektlarning nomlarini turli ranglarda yozilishini biladi;
- ☐ xaritada masshtab yordamida masofani o'lchash bo'yicha masalalar yechadi;
- ☐ berilgan ob'ektlarni geografik koordinatalarini aniqlay oladi;
- ☐ zilzila va vulqonlarni keltirib chiqaradigan sabablar mohiyatini tushunadi;
- ☐ zilzila sodir bo'lganda xavfsizlik qoidalarini biladi;
- ☐ foydali qazilmalarning turlarini biladi;
- ☐ Yer yuzining asosiy shakllari, suv obyektlarni xaritadan ko'rsatadi;
- ☐ suvdan oqilona foydalanishning zamonaviy usullarini biladi;
- ☐ kichik suv havzalarida sodda o'lchash ishlarini amalga oshiradi;
- ☐ ma'humotlar asosida tabiiy hodisalarga doir masalalarni yechadi;
- ☐ termometr yordamida havo haroratini o'lchay oladi, ob-havo va iqlimning inson faoliyatiga tahsirini tushunadi;
- ☒ ob-havo kuzatuv daftariga yashaydigan joyining ob-havosini yozib boradi va kuzatuvlar natijasini tahlil qiladi;
- ☒ tabiiy hodisa va jarayonlarning turli o'lcham va kattaliklarini (harorat, yog'in miqdori va hokazolarni) tasvirlovchi grafiklarni tuzadi;
- ☒ yashash joyining tabiat kompleksini yaxshilash haqida takliflar tayyorlaydi.
- ☐



I bob. GEOGRAFIYA FANI VA UNING RIVOJLANISHI

(2 soat)

Kirish. Geografiya nimani o'rganadi?

Geografiya, uning tarmoqlari, o'rganish ob'ekti va predmeti haqida tushuncha. Geografiya fanining paydo bo'lishi. Eratosfen. Geografiya fanining tabiatni bilish, undan foydalanish, muhofaza qilishdagi ahamiyati. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida nimalar o'rganiladi?

Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi.

Eratosfen, Ptolemey, vatandoshlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrov, Zahiriddin Muhammad Bobur tadqiqotlari, tuzgan xaritalari. Buyuk geografik kashfiyotlar: X. Kolumb, A. Vespuchchi, V.da Gama, F. Magellan, F. Bellinsgauzen va M.Lazarevlarning sayohat hamda geografik kashfiyotlari. Hozirgi zamon geografiyasi nimani o'rganadi? Geografik tadqiqotlarda ilmiy sayohatlarning, kosmik fotosuratlarning ahamiyati.

Amaliy topshiriq: "Ob-havo kalendarini tuzish va kuzatish" kundalik daftarini tutish.

II bob. YER - QUYOSH SISTEMASIDAGI SAYYORA

(4 soat)

Quyosh, Oy va yulduzlar.

Yulduzlar. Yulduz turkumlari: Yetti og'ayni (Katta ayiq), Yetti qaroqchi (Kichik ayiq) turkumlari. Qutb yulduzi. Quyosh, uning o'lchamlari. Quyosh - Yerdagi hayot manbai. Quyosh sistemasi. Sayyoralar. Oy-Yerning tabiiy yo'ldoshi. Quyosh va oy tutilishlari. Osmon jismlarining sayyoramiz tabiatiga ko'rsatadigan ta'siri.

Yerning shakli va o'lchamlari.

Qadim zamonlarda kishilar Yer shaklini qanday faraz qilganlar? Yerning shakli haqidagi fikrlarning yig'ilishi. Yerning sharsimon shaklda ekanligini isbotlash. Globus. Ekvator va qutblar. Yerning o'lchamlari, qutbiy va ekvatorial radiuslar. Geoid haqida eng oddiy tushuncha.

Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi.

Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi. Bularning oqibatlari, sayyoramiz tabiati va insoniyat hayotiga ta'siri. Kabisa yili. Fasllar

almashinishi. Quyosh turishi va tengkunlik. Yerning notekis yoritilishi. Qutbiy, tropik doiralar. Yerning yoritilish va issiqlik mintaqalari.

Amaliy topshiriq: osmon gumbazini kuzatib, unda Yetti og'ayni yulduz turkumini, Qutb Yulduzini, Somon yo'lini topish. Oyning osmondagi o'rnini yulduzlarga nisbatan har kuni o'zgarib turishini kuzatish.

III bob. GEOGRAFIK XARITALAR

(7 soat)

Azimut va masofani o'lchash.

Ufq tomonlari va ularni joyda aniqlash. Azimut va uni kompas yordamida aniqlash. Masofani o'lchash. Azimut bo'yicha yurish.

Joy balandligi.

Nisbiy va mutlaq balandliklar. Nivelir.

Masshtab.

Masshtab va uning turlari.

Amaliy mashg'ulot.

O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Ufq tomonlari va ularni joyda aniqlash. Azimutni kompas yordamida aniqlash. Masofani o'lchash. Xaritada masshtab yordamida masofani o'lchash bo'yicha masalalar yechish.

Geografik xaritalar.

Globus va geografik xaritalarda Yerning tasvirlanishi. Xaritalarda turli kattalikdagi hududlarning tasvirlanishi. Xaritalarning asosiy turlari. Ulardagi shartli belgilar. Yozuvsiz xaritalar.

Geografik koordinatalar.

Parallellar va meridianlar, bosh meridian. Geografik kenglik va geografik uzunlikning mohiyati, ularni aniqlash tartibi.

Amaliy mashg'ulot.

Toshkent, Nyu-York, Kanberra va Rio-de-Janeyro shaharlari koordinatalarini yarimsharlar tabiiy xartasi yordamida aniqlash. Berilgan koordinatalarga qarab yarimsharlar tabiiy xartasidan ob'ektlarni aniqlash.

IV bob. YERNING QATTIQ QOBIG'I - LITOSFERA

(5 soat)

Yerning ichki tuzilishi.

Yerning tashqi va ichki qobiqlari. Yerning ichki qismiga tushilgan sari moddalar tarkibi va holatining, harorat va bosimning o'zgarishi. Yer po'sti. Mantiya. Yadro.

Litosfera. Tog' jinslari.

Litosfera. Yer po'sti, uning qatlamlari va ularni hosil qilgan tog' jinslari. Magmatik, cho'kindi tog' jinslari, tog' jinslarining o'zgarishi, metamorfik tog' jinslari. Yoqilg'i, rudali, noruda foydali qazilmalar (mineral resurslar), ularning shartli belgilari.

Yer po'stining harakatlari.

Litosfera plitalari haqida tushuncha. Litosfera plitalari harakati, uning oqibatlar. Tektonik harakatlar, burmalar va yoriqlar hosil bo'lishi. Zilzila. Vulqonlar va ularning tuzilishi. Issiq buloqlar.

Yer yuzasi relyefining asosiy shakllari.

Yer yuzasi relyefi. Materiklar va okeanlar. Orollar, yarimorollar. Quruqlikdagi tog'lar, tog'larning balandlik jihatidan farqlanishi, tog'larning asta-sekin o'zgarishi. Tog' cho'qqilari, tizmalari va o'lkalari. Dunyodagi va O'zbekistondagi eng baland tog' cho'qqilari. Tekisliklar. Tekisliklarning balandligiga ko'ra farq qilishi. Dunyodagi eng katta tekisliklar.

Amaliy topshiriq: tog' jinslari namunalarini (magmatik, cho'kindi, kimyoviy, organik, noorganik tog' jinslari) o'rganish, balandlik va chuqurlik shkalalari yordamida eng baland tog'larni va eng chuqur cho'kma hamda botiqlarni xaritadan topish. O'quv atlasidan O'zbekistondagi eng baland cho'qqilarni, eng chuqur botiqlarni aniqlash. O'z joyi relyefi va bu Yerdagi tarqalgan tog' jinslarini o'rganish.

V bob. YERNING SUV QOBIG'I - GIDROSFERA (5 soat)

Gidrosferaning tarkibi. Dunyo okeani.

Yerning suv qobig'i, uning tarkibiy qismlari. Yerdagi suv turli holatlarda bo'lishi, suvning tabiatda aylanishi. Dunyo okeani va uning qismlari. Dengiz, qo'ltiq, bo'g'izlar. Okean tagi relyefi. Exolot.

Daryolar.

Daryo ta'rifi, daryolar manbai, mansabi, bosh daryo va irmoqlar, daryo havzasi, suvayirg'ich. Tog' daryolari va tekislik daryolari, sharsharalar, vodiylar tuzilishi. Daryolarning to'yinishi va rejimi haqida umumiy tushuncha. Daryolar suvidan foydalanish va muhofaza qilish.

Ko'llar va muzliklar. Yer osti suvlari.

Ko'l nima? Oqar, oqmas, sho'r, chuchuk suvli ko'llar. Kaspiy dengizi, Baykal ko'li. Orol dengizi. Suv omborlari. Muzliklar. Muzliklarning hosil bo'lishi, qor chizig'i, muzliklarning turlari. Tog' muzliklari, ularning ahamiyati. Yer osti suvlari, suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan jinslar, grunt suvlari va qatlamlararo suvlar. Buloqlar, artezian suvlar. Yer osti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilish.

Amaliy topshiriq: Yozuvsiz xaritada materik va okeanlarni, eng yirik dengiz, qo'ltiq hamda bo'g'izlarni, orol va yarimorollarning nomini yozish. O'zbekistondagi daryolar, ko'llar, suv omborlarining ro'yxatini daftarga yozish. O'z joyidagi suv ob'ekt larining (daryo, kanal, ariq, buloq) suv sarfini (o'qituvchi rahbarligida iloji bor joylarda) o'lchash va ta'riflab yozish.

Umumlashtiruvchi takrorlash.

O'tilgan mavzularning tayanch tushunchalarini takrorlash va mustahkamlash.

VI bob. YERNING HAVO QOBIG'I – ATMOSFERA (7 soat)

Atmosferaning tuzilishi.

Yerning havo qobig'i, havoning tarkibi, atmosferaning qatlamli tuzilganligi. Atmosferaning ahamiyati, atmosferani o'rganish usullari.

Havo harorati va bosimi.

Havo harorati, termometr. Havo haroratining kecha-kunduz, yil davomida o'zgarib turishi, havo haroratining sutkalik va yillik amplitudasi. O'rtacha sutkalik, oylik, yillik haroratlar. Havo bosimi, barometr. Havo bosimi va haroratining balandlik bo'yicha o'zgarishi.

Amaliy mashg'ulot.

Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik)ga yo'naltirilgan va fanlararo bog'liqlikka doir (mantiqiy) masalalar yechish: havoning o'rtacha sutkalik haroratini berilgan qiymatlar asosida hisoblash. Havo harorati yillik amplitudasini hisoblash. Havo harorati va bosimining balandlik ortishi bilan o'zgarishiga oid masalalar yechish.

Shamol.

Shamol, shamolning hosil bo'lishi. Briz shamoli. Sayyoraviy doimiy shamollar: passatlar, g'arbiy shamollar va mussonlar. Mahalliy shamollar, tog'-vodiy shamollari. Shamolning yo'nalishi va kuchini aniqlash. Flyuger.

Anemometr. Shamol kuchidan foydalanish va shamoldan dalalarni muhofaza qilish.

Havo namligi va yog'inlar.

Havodagi suv bug'i, mutlaq va nisbiy namlik. Tuman, shudring, qirovning hosil bo'lishi. Bulutlar va ularning turlari. Yog'inlar. Yog'in turlari, yog'in miqdorini o'lchash. O'zbekistonda yog'in miqdori. Namlanish koeffitsienti.

Amaliy mashg'ulot.

Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik)ga yo'naltirilgan va fanlararo bog'liqlikka doir (mantiqiy) masalalar yechish: flyuger, anemometr bilan tanishish. Shamolning yo'nalishi va kuchini aniqlash. To'plangan ma'lumotlar asosida "Shamollar guli"ni chizish. Iqlim xaritalaridan izoterma va izobaralarni tahlil qilish. Havo namligini hisoblashga oid masalalar yechish. Namlanish koeffitsientini hisoblash.

Ob-havo va iqlim.

Ob-havo nima? Ob-havo hodisalari. Ob-havo bashorati va uning amaliy ahamiyati. Iqlim nima? Iqlimning asosiy 2 ta tavsifi: issiqlik va namlik darajasi. Yer yuzida sayyoramiz sharsimonligi tufayli Quyosh yorug'ligi va issiqligining notekis taqsimlanishi, iqlimning geografik kenglikka bog'liqligi. Havo massalari. Dengiz va kontinental havo massalari va shularga mos keladigan iqlim tiplari. Iqlimga relʼefning ta'siri. O'zbekiston iqlimi o'ziga xosligi va uning hosil bo'lish sabablari haqida dastlabki tushuncha.

VII bob. BIOSFERA. INSON VA TABIAT

(4 soat)

Yerning hayot qobig'i - biosfera

Tirik organizmlarning tabiatdagi o'rni, Yerning biosfera qobig'i, uning mohiyati va chegaralari. Yer yuzida o'simlik va hayvonlarning turli-tumanligi, ularning o'zaro aloqada ekanligi va ta'sir etib turishi. Tirik organizmlarning Yer yuzida notekis tarqalganligi va buning tabiiy sharoitga bog'liqligi. O'simlik va hayvonlarga insonning ta'siri.

Tabiat zonalari

Tabiat zonalari – yirik tabiat komplekslari. Tabiat zonalarining vujudga kelishi, yer yuzida almashinishi. Tog'larda balandlik mintaqalanishi qonuniyati va uning sabablari. O'zbekiston asosan cho'l va chalacho'llar zonasida joylashganligi, bu zonalar tabiati. O'zbekistondagi tog'larda balandlik mintaqalanishning ro'y berishi.

Amaliy topshiriq: O'z joyida o'sadigan o'simliklarning o'tlar, butalar, daraxtlar, hayvonlar hashorotlar, qushlar, sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar ro'yxatini tuzish. O'z joyidagi o'simlik va hayvonlarga inson ta'sirini o'rganish.

Umumlashtiruvchi takrorlash.

O'quv yili davomida o'tilgan mavzularning tayanch tushunchalarini takrorlash va mustahkamlash.

